

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.M.Zokirova	
Hozirgi zamon ijtimoiy fanlar kontekstida disleksiya.....	1315
I.T.Xojaliyev	
Tasvir nutq tipining modal aspketi.....	1319
M.A.Usmanova	
"Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin" asarida izofiy birikmalarning qo'llanilishiga doir nazariy masalalar.....	1324
R.N.Umarova, O.U.Xolmatova	
Kognitiv lingvistikada konsept va maqol tushunchasi munosabati	1328
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarining o'rganilishi va uning tarjimalari.....	1333
R.M.Shukurov, S.S.Abdikunduzova	
Kommissiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi.....	1337
A.I.Saminov	
Oksyumoron va unga yondosh stilistik figuralar xususida.....	1341
G.Z.Rozikova	
Gaplarga xos sintagmatik nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi omillar	1346
N.A.Quldashev, F.N.Mahmudova	
Allegory as a research object of linguistics	1351
E.K.O'rinboyeva, G.S.Jo'raboyeva	
"Devonu lug'otit turk"da qo'llanilgan ayrim maqollarning lingvopoetik tahlili	1354
U.I.Nosirova	
Poetik matnlarning визуал-график ifodasi	1360
Sh.R.Mo'ydinov	
Ingliz va O'zbek tillarida "Hayot/O'lim" konseptual oppozitsiyasi verbalizatorlari struktural-semantik maydoni.....	1366
Y.I.Karimov	
O'zbek tilshunosligida til birliklari va so'z birikmalari talqini	1369
G.S.Jo'raboyeva, G.V.Ergashova	
"Qisasi rabg'uziy" asarida qo'llangan ko'makchilar tahlili	1373
D.M.Ismoilova	
Lingvogenderologiyaning nazariy masalalari	1378
G.S.Jo'raboyeva, E.K.O'rinboyeva	
"Devonu lug'otit turk" asari va toponimlar.....	1383
Sh.M.Iskandarova, N.R.Maxmudova	
Tub so'z holatidagi ornitonimlar	1388
E.I.Ibragimova, E.K.O'rinboyeva	
Sintaktik sathda qarama-qarshilik munosabatining ifodalanishi	1392
Sh.M.Iskandarova	
Lug'aviy birliklarda differensial-mazmuniy munosabatlar	1397
X.X.Dusmatov, Z.N.Maxmudova	
So'z o'yinlarining askiyachilar nutqida qo'llanilishi	1401
Z.A.Akbarova	
Inson dunyoqarashi olamni modellashtiruvchi sifatida	1406
P.M.Axmadjonov	
Sayf Farg'oniy she'riyatida istiora badiiy so'z san'atining qo'llanilishi.....	1409
O.Q.Abbozov	
Diniy motivli toponimlar.....	1413
I.T.Axmadjonov	
Deminutiv morfemalarning semantikasi va uslubiyati.....	1416
M.T.Abdupattoyev	
Poetik nutqda aktualizatsiya va aktual bo'linish	1422
A.Mamajonov, O.Q.Abbozov	
So'x tumani toponimlarining lingvistik tadqiqi.....	1427
M.T.Abdupattoyev	
Matnning statistik tahlili.....	1433



UO'K: 811.512.133'25

LUG'AVIY BIRLIKLARDA DIFFERENSIAL-MAZMUNIY MUNOSABATLAR**ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ****DIFFERENTIAL-SEMANTIC RELATIONS IN LEXICAL UNITS****Sh.M.Iskandarova**

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Maqolada kommunikativ semantika va nutqiy jarayonlarni o'rganish masalalari, oppozitiv, komponent tahlil hamda matniy tahlil metodlari, leksik-semantik paradigmalarning tuzilishi, so'zlarning mazmuniy aloqasi xususidagi masalalar haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы изучения коммуникативной семантики, речевых процессов, методов оппозиционного, компонентного и текстового анализа, структуры лексико-семантических парадигм, а также вопросы, связанные со смысловой связью слов.

Abstract

The article discusses issues of studying communicative semantics, speech processes, methods of oppositional, component and text analysis, the structure of lexical-semantic paradigms, as well as issues related to the semantic relations of words.

Kalit so'zlar: kommunikativ semantika, nutqiy jarayon, oppozitiv metod, matniy tahlil metodi, mazmuniy aloqa, privativ oppozitsiya, ekvipolent oppozitsiya, diz'yunktiv oppozitsiya.

Ключевые слова: коммуникативная семантика, речевой процесс, оппозиционный метод, метод текстового анализа, содержательная коммуникация, приватная оппозиция, эквивалентная оппозиция, дизъюнктивная оппозиция.

Key words: communicative semantics, speech process, oppositional method, text analysis method, meaningful communication, private opposition, equivalent opposition, disjunctive opposition.

KIRISH

Jahon tilshunosligida struktur semantika tilshunoslikning muhim qismlaridan biri sifatida qaraluvchi sistem semantikaga aylandi. Kommunikativ semantika esa nutqiy jarayonlarni o'rganish bilan xarakterlanadi, chunki lisoniy va shu sohadagi ma'nolardan ifoda, ya'ni keng ma'nodagi diskurs va matnlarning aniq mazmuni kelib chiqadi. Ma'lumki, til mazmuniy mundarijasini maydon metodi bilan o'rganish eng samarali va qulay metodlardan biri sifatida ahamiyatli bo'lib, maydonlarni leksik-semantik, funksional-semantik maydonlarga ajratishda oppozitiv, komponent tahlil hamda matniy tahlil metodlari o'ziga xos samara beradi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirda bir qator lingvistlar tomonidan lisoniy birliklarining leksik-semantik jihatdan bir-biri bilan bog'langan ekanligi aniq belgilangan bo'lib, xususan, F.de Sossyur lisoniy birliklar o'rtasidagi bir necha munosabat turlarini ko'rsatgan bo'lsa, M.Pokrovskiy so'zlar bir-biri bilan ongimizdan tashqarida ma'nolarining ma'lum tomonlari bilan aloqadorligini ta'kidlagandi. M.Pokrovskiyning fikricha, har qanday tilda so'zlarning o'ziga xos bo'lgan semantik guruhlar bo'lib, ularning xususiy belgilari boshqa tillar bilan qiyosan ochiladi. Ta'kidlash zarurki, M.Pokrovskiy tomonidan qo'yilgan muammo grammatik planda o'rganildi. V.Vinogradov ham so'zlarning leksik ma'nolari turlari orasiga "predikativ" ma'nolarni hamda grammatikadagi ba'zi kategoriyalarni kiritdi. A.R.Luriya har bir so'z munosabatlarning butun bir murakkab tizimini yuzaga keltirishni qayd etadi[6,91]. G'arbiy Yevropa tilshunosligida Y.Trinning mazmuniy maydon nazariyasi so'zlarning leksik-semantik

aloqalari haqidagi qarashlarda muhim o'rin tutadi. O'zbek tilshunosligida ham maydon talqini bilan bog'liq bir qator qarashlar yuzaga chiqdi[3;4;7;9;10;12;13].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Mazmuniy maydon nazariyasi struktural semantika nazariyasi bo'lishi uchun, avvalo, mazmuniy maydonlar obyektiv holda ajratilishi zarur, mazmuniy maydonlarning struktur nazariyasi ma'nolarni komponent tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Mazmuniy maydonlar mantiqiy tomondan, ya'ni, tushunchaviy asosda qurilmoqda, shuning uchun semantika va boshqa lingvistik sohalar o'rtasida ajralish bo'lib qolmoqda, aslida mazmuniy maydonlar lingvistik asosga qurilishi zarur.

Leksik-semantik paradigmalarning tuzilishini, asosan, binar oppozitsiyalar - ikki tomonlama zidlanishlar shakllantiradi. Ammo borliq hodisalarining ko'p tomonli aloqalari bilan bog'liq bo'lgan ko'p a'zoli zidlanishlar ham bo'lishi mumkin. Ma'lumki, mazmuniy maydonda so'zlar barcha ma'nolarining yig'indisi bilan bir butun sifatida ichki munosabat va aloqalarga kirmay, balki alohida ma'nolari bilan munosabatga kirishadi. Y.H.Karaulov har qanday ikki to'plam bir-biri bilan quyidagicha munosabatlarda bo'lishini ta'kidlaydi: 1) *nol oppozitsiya* – to'plamlar o'rtasida teng munosabat bo'lib, bunday to'plamlar elementlari ya'ni taqqoslanayotgan so'zlar ma'nolarining asosiy qismlari bir xil bo'ladi, bunday oppozitsiya zidlanish munosabatida bo'lgan ikki birlik o'rtasidagi sinonim va sinonimik aloqalar bo'ladi, ularning asosiy qismlari o'xshash bo'lib, ma'no nozikliklari bilan farqlanadi; 2) *privativ oppozitsiya* yoki qat'iy kirishish munosabatlari – bunday munosabatlarda tur va jins nomlari bo'ladi, ba'zan bu munosabatlarni giponimiya deb ham ataydilar; 3) *ekvipolent oppozitsiya* – bunda ikki to'plam bir-biri bilan kesishadi, ularning kesishishida ikkala to'plamning umumiy qismi hosil bo'ladi, taqqoslanayotgan ma'nolarning bir xil hamda turlicha tarkibiy qismlari mavjud, ular bir so'z turkumi, turi turkumlar, shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarning alohida ma'nolari doirasida bo'lishi mumkin; 4) *diz'yunktiv oppozitsiya* – bunda to'plamlarning umumiy elementlari mavjud bo'lmaydi[5,106-108].

Maydonda so'zlarning mazmuniy aloqasi xususidagi masalani hal etish davomida quyidagilarga to'xtalish lozim. Agar so'zlarning ma'nolari umumiy qismga ega bo'lsa (to'plamlar kesishsa), ikki so'z bir-biri bilan bog'liq hisoblanadi. Bu holda mazmuniy maydonda ma'nolar umumiy tarkibiy qismlari bilan, ya'ni nol, ekvipolent va xususiy oppozitsiyada bo'lgan qismlari bilan kirishishi zarur. Agar to'plamlar orasidagi munosabatlar to'rt turdagi oppozitsiyaga to'g'ri kelsa, to'plam elementlari orasida oppozitsiya faqat nol va diz'yunktiv turda bo'ladi.

Elementlarning xususiy ko'rinishi bir-birini inkor qilib keluvchi qarama-qarshi elementlar sanaladi. Bu munosabatni antonimik oppozitsiya deb ham yuritiladi. Demak, diz'yunktiv munosabatlar ichida doimiy diz'yunktiv munosabatlarni hamda muayyan bir sharoitda yuzaga chiquvchi antonimik munosabatlarni farqlash lozim. To'plam elementlarni sanash orqali (bulbul, qumri, to'ti – qushlar to'plami) yoki to'plamni nomlash bilan (sayroqi qushlar to'plami) beriladi. To'plam elementlari orasida shundaylari borki, ularni to'plamning nomi bilan atash mumkin: *bulbul* – sayroqi qush. Izohli lug'atlarda so'zni ta'riflash, izohlash maqsadida to'plam nomlaridan ma'lum darajada foydalanish kuzatiladi. Biroq to'plam nomini har bir elementga nisbatan doim ham ishlatish to'g'ri bo'lavermaydi.

Bilamizki, ikki to'plam xususiy oppozitsiyada bo'lsa, ularning elementlari hosil qilgan oppozitsiya orasida, albatta, antonimik oppozitsiya bo'ladi, ammo aksincha bo'lishi mumkin emas. Ya'ni: antonimik munosabatlar tobe, ikkilamchi munosabatlardir, ular ikki to'plamning xususiy oppozitsiya sharoitidagina paydo bo'ladi. Maydondagi antonimik munosabatlar tabiatiga ko'ra leksik antonimlarga qaraganda, kontrar mantiqiy munosabatlarga yaqin bo'lsa-da, ularning asosida baribir umumleksik antonimiya yotadi; antonimik oppozitsiya tushunchasi antonimiyaga nisbatan kengroqdir. Ularni tur - superordinata nomini oluvchi bitta to'plamga kiritish mumkin; leksikada antonimlar istisnosiz diz'yunksiya munosabatida bo'lsa (yorug'lik – demak, qorong'ilik emas), mazmuniy maydondagi munosabatlarning vazifasidan biri istisnosiz diz'yunksiyani istisnoli diz'yunksiyaga aylantirishdan iborat. Bu jarayon qarama-qarshilikning chegarasini belgilash bilan yuzaga keladi. Masalan, yorug'lik qorong'ilikni inkor etsa, qo'l va oyoq bir vaqtda mavjud bo'lishi mumkin. Ammo tana superordinata berilgan bo'lib, uning a'zolari (*bosh, qo'l, oyoq, bel* kabi) maydon tashkil etganda ular bir-biriga ma'lum darajada zidlanishi kuzatiladi.

TILSHUNOSLIK

Maydonda antonimlar ham umumleksik antonimlar singari bir-birini oddiygina tarzda inkor etmaydi, buning uchun taqqoslovchi qandaydir asos bo'lishi bilan birga, ma'lum umumiylik ham e'tiborga olinadi. Maydonda bu umumiylik yadroga nisbatan tur nomi (superordinata) bo'lishi kerak.

Sinonimlarni aniqlashda semantik mezonlardan kelib chiqilsa, aynan bir ma'noni anglatuvchi til birliklari e'tiborga olinadi. Bu hodisa Y.D.Apresyaning ishlarida o'mosemant va parasemantlar sifatida ifodalanadi[1,14]. Sinonimlar o'mosemantlar tarzida tushunilganda, ifodaning faqat tildagi so'z ma'nosini aks ettiruvchi yoki relyatsion kategoriya sifatida tushunish, sinonimlar parasemantlar (ya'ni, kvazisinonimlar) sifatida tushunilganda, ularning mazmuniy yaqinlik darajasi muhim masala bo'lib qoladi. Sinonimlarni parasemantlar tarzida tushunish ayrim vaziyatlarda bir xil ma'no anglatuvchi so'zlarni bir-biriga almashtirish imkonini beradi. Bu talqinda sinonimik guruhlar boshqa mazmuniy guruhlardan (LSG, antonimik, giponimik guruhlardan) ajratilmaydi, ya'ni ularning chegarasini aniqlash ma'lum ma'noda murakkablashadi.

D.H.Shmelev leksik sinonimlarga pozitsion mazmuniy farqlari neytralizatsiyaga uchrashi mumkin bo'lgan ma'nolari yaqin so'zlarni kiritishni taklif etadi. Garchi bu juda ham muhim mezon bo'lsa-da, u til va nutqiy sinonimlarni ajratishda xizmat qilmaydi. Bu jihatdan L.A.Hovikovning fikrlari o'rindir. U sinonimlarni simmetrik giponimiya sifatida ikki tomonlama implikasiya termini bilan tushuntiradi, ya'ni: 1) ekvivalent holatlar: *tilshunoslik* – *lingvistika* (simmetrik ifoda); 2) bir tomonlama implikasiya: *gul* – *atirgul* (simmetrik giponimiya) [8,228]. L.M.Vasilyevning talqinicha, parasemantlar deb ma'noning tushunchaviy qismlari bilan mos keluvchi, ammo uning konnotativ qismlaridan ajralib turuvchi tilning leksik birliklarini tushunish zarur[2,130].

Sinonimlarni parasemantlar sifatida tushunishda birliklarning ma'noviy yaqinligi darajasi alohida e'tiborga olinadi, bu muammo tilshunoslikdagi muhim masalalardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda.

Ma'lumki, antonimik guruhlar, ikki qismdan tashkil topib, ularning a'zolari, dominantolari bir-biriga ma'noning ma'lum komponentlari bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Ilmiy adabiyotlarda antonimik birliklar qarama-qarshiligining uch xil xususiyati ko'rsatiladi: 1) eng chetdagi birliklar qarama-qarshi qo'yiladi: to'plamdagi boshqa birliklar ular orasiga tushishi mumkin, ular kontrar antonimlar deyiladi: *yosh* (*o'rta yosh*) *kekxa*; 2) unda tur tushunchasini belgilovchi so'zlar bo'lmashligi bilan xarakterlanadi: *birga* – *alohida*, ular komplementar antonimlar deyiladi; turli yo'nalishdagi faoliyat, harakat, holatlar ifodalanadi: *kelmoq* – *ketmoq*, ular vektor antonimlar hisoblanadi.

Sinonim va antonimlar orasida o'zaro bog'liqlik bo'lib, ular mazmuniy ma'no orqali umumiy belgiga ham ega bo'ladilar. Y.D.Karaulov ularni sinonimlarning antonimik, antonimlarning sinonimik qo'llanishi sifatida izohlaydi[5,86].

Turli so'z turkumlariga kiruvchi bir-biri bilan mazmuniy munosabatda bo'luvchi so'zlar sinfi turkumlararo leksik maydonni tashkil qiladi. Ularga transpozitiv turdagi uyalar mansub: ***yurmoq* - *oyoq*; *ko'rmoq* - *ko'z*** kabi. Maydon elementlarining munosabatlarini chuqurroq yoritish uning tushunchaviy aspektini tekshirib chiqishni taqozo etadi. Mantiqda tushunchalar taqqoslanadigan, ya'ni tarkibida umumiy elementlari bo'ladigan va taqqoslanmaydigan, ya'ni umumiy elementlari bo'lmagan tushunchalarga bo'linadi.

Alohida olingan so'z ifodalanmishni (denotatni) ko'rsatadi va ifodalovchini (designatni) aks ettiradi[11,68]. So'z bilan ifodalangan ifodalanmish (denotat) ham ma'lum bir predmetlar sohasiga mansub bo'lib, bir qator munosabatlarga kirishadi. Ifodalanmishlar sinfini kengaygan ifodalanmish (metadenotat) deb nomlanadi, bunda kengaygan ifodalanmish mavzuga, mavzu sinflariga mos keladi. O'z navbatida, ifodalovchi (designat) ham faqat o'zi uchun xos bo'lgan bir qator munosabatlarga, aloqalarga kirishadi, ya'ni ifodalovchilarning ma'lum sinfiga mos bo'ladi. Ifodalovchilar sinfini metadesignat (kengaygan ifodalovchi) deyish mumkin. Kengaygan ifodalovchi so'zning pragmatik aspektini o'z ichiga oladi. Alohida olingan so'zning ma'nosi ifodalanmish (denotat - real borliqqa xos predmet yoki hodisa) ning ifodalovchi (designat - ongda predmetning aks etishi yoki predmet haqidagi tushuncha) bilan aloqasi, munosabati orqali belgilanadi.

XULOSA

Paradigmatik tuzilish xarakteriga so'zlarning barcha leksik guruhlari, atamalar tizimi, hatto mavzuiy guruhlar ham ega. Biroq ularning sistemaliligiga xos ifodalanish darajasi, ya'ni sistemalilik asosida yotuvchi qarama-qarshiliklarning doimiylik darajasi bir xil emas. Bu farqlar ko'p jihatdan

ekstralingvistik omillar bilan bog'liq. Ekstralingvistik omillar ma'lum darajada so'zlarning sinonimik qatorlari strukturasi, ko'proq mavzuiy qatorlari bilan bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. М.: Наука, 1974.
2. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. М.: ВШ, 1990.
3. Воққосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Фаргона, 2005.
4. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фанл. докт....дисс. автореф. Тошкент, 1999.
5. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. М.: Наука, 1976.
6. Лурия А.Р. Язык и сознание. М.: МГУ, 1979.
7. Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фанл. докт....дисс. автореф. Тошкент, 1994.
8. Новиков Л.А. Семантика русского языка. М.: ВШ, 1982.
9. Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лингвистик-нутқий хусусияти: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Самарқанд, 2004.
10. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. Тошкент, 2004.
11. Степанов Ю.С. О предпосылках лингвистической теории значения// ВЯ, 1964, № 5.
12. Қурбонова Б. Локаллик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Тошкент, 2007.
13. Ҳожиева Ҳ. Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лингвистик-нутқий хусусиятлари: Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Самарқанд, 2001.